

ANDIJON VILOYATIDA TURIZM VA DAM OLIISH SOHASI RIVOJLANISHINING ASOSIY KO`RSATKICHLARI

Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog`lomlashtirish, ma`rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to`lanadigan faoliyat bilan shug`ullanmagan holda uzog`i bilan bir yil muddatga jo`nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Andijon viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar soni 6 tani tashkil qilib, 2016 yilda ular tomonidan 2662 nafar tashrif buyuruvchilarga xizmat ko`rsatildi.

2016 yilda Andijon viloyatiga jami 754 nafar turistlar tashrif buyurgan. Ulardan 630 nafari chet el fuqarolari, qolgan 124 nafari O`zbekiston Respublikasi fuqarolaridan iborat. Xizmat ko`rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni 2,2 ming nafarni tashkil qilgan.

1-rasm

2016 yilda Andijon viloyatida xizmat ko`rsatilgan tashrif buyuruvchilar



2016 yilda Andijon viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar tomonidan 1,2 ming ta sayyohlik yo`llanmalari sotilgan bo`lib, uning qiymati 1314,0 mln. so`mni tashkil qildi.

1-jadval

2016 yilda sotilgan sayyohlik yo`llanmalarining soni va qiymati

	Soni, birlik	Qiymati, mln.so`m
Sotilgan sayyohlik yo`llanmalari jami	1294	1314,0
Ulardan bevosita aholiga	1294	1314,0
shu jumladan:		
O`zbekiston hududi bo`yicha O`zbekiston fuqarolariga	718	609,0
Chet el mamlakatlari bo`yicha O`zbekiston fuqarolariga	576	705
O`zbekiston xududi bo`yicha MDH fuqarolariga	-	-

2016 yilda mehmonxonalar toifasi (yulduzi) bo'yicha faoliyati

2016 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 23 tani tashkil qildi. Ulardan 18,0 foizi bir yulduzli, 26,0 foizi uch yulduzli, 4 foizi to'rt yulduzli, 4 foizi besh yulduzli va 48,0 foizi toifaga ega bo'lmagan mehmonxonalardir.

2-rasm

